

POMIDOR YETISHTIRISH SABZAVOTCHILIKNING YETAKCHI TARMOG'I

Suyunova Zamira Ibragimovna

*“TIQXMMI” milliy tadqiqot universitetining Qarshi irrigatsiya
va agrotexnologiyalar instituti magistranti*

Annotatsiya. Pomidor hozirgi kunga kelib o‘zining qimmatli va dietik xususiyatlari sababli butun jahonda eng keng yetishtiriladigan sabzavot ekinlaridan biri hisoblanadi. Hozirgi kunga kelib pomidorning 1000 dan ortiq turli-tuman navlari yaratilgan bo‘lib, ular ochiq va himoyalangan maydonlarda yetishtirilmoqda.

Dunyoda iqlimning keskin o‘zgarib borayotganligi hisobiga yoz oylarida havo haroratining ortib borishi, nisbiy namlikning esa juda pasayib ketishi kuzatilmoqda. Shuningdek, kasallik va zararkunandalarning keng tarqalib borayotganligi sababli pomidorning biotik va abiotik stress faktorlarga chidamli yangi nav va duragaylarini yetishtirish zarurati kelib chiqmoqda.

Kalit so‘zlar: pomidor, sabzavot, nav, yetishtirish, ekin, hosil, tonna, seleksiya, urug‘, manzarali ekin.

Annotatsiya. Pomidor yavlyaetsya odnoy iz naibolee shiroko vygraщivаемых овоцных культур в мире благодаря своим сенным и диетическим свойствам. На сегодняшний день создано более 1000 сортов томатов, выращивавшихся на открытых и защищенных территориях.

Iz-za rezkix izmeneniy klimata v mire temperatura vozduxa v letnie mesyasy povyshaetsya, a otnositelnaya vlajnost znachitelno snijaetsya. Takje v svyazi s shirokim rasprostraneniem bolezney i vrediteley voznikaet neobxodimost vygraщivaniya novykh sortov i gibridov tomatorov, ustoychivyx k bioticheskim i abioticheskim stressovym faktoram.

Klyuchevыe slova: pomidor, овоці, sort, vozdelыванie, kultura, urojay, tonna, seleksiya, semya, dekorativnoe rastenie.

Bugungi kunda yer yuzi aholisi 7 milliarddan oshib, ayrim mamlakatlar bozorlarida oziq-ovqat mahsulotlarining tanqisligi xavf solayotgan bir paytda, shaxsan Prezidentimiz Sh. M. Mirziyoev va respublika hukumatining tarmoqni yanada rivojlantirishga oid ko‘rsatmalari sabzavot-poliz va kartoshka yekinlari mahsulotini tobora ko‘paytirish va eksport qilish masalasini asosiy vazifa qilib qo‘ymoqda.

Pomidor jahon miqyosida eng ko‘p yetishtiriladigan va iste’mol qilinadigan sabzavot ekini hisoblanadi. U 15 ta asosiy qishloq xo‘jaligi ekinlaridan biridir. «FAOSTAT» ma’lumotlariga ko‘ra «2021 yilda eng ko‘p pomidor yetishtiruvchi mamlakatlar Xitoy (62,9 mln t), Hindiston (19,0 mln t), AQSh (10,6 mln t), Turkiya

(12,8 mln t), Italiya (5,3 mln t), Eron (5,3 mln t), Ispaniya (5,0 mln t), Meksika (4,3 mln t), Braziliya (3,9 mln t) hisoblanadi».¹ O‘zbekistonda ham pomidor yetakchi sabzavot ekinidir. 2021 yilda respublikamizda 61,38 ming hektar maydonda pomidor yetishtirilgan va yalpi hosil 2,21 mln tonnani, o‘rtacha hosildorlik esa 25,0 t/ga ni tashkil etgan.

Pomidor Yevropaga 1493 yil Xristofor Kolumb tomonidan olib kelingan. Uni yetishtirish esa XVI asrning 50-60 yillarda boshlangan. Yevropada pomidor birinchi bo‘lib Ispaniya va Portugaliyada yetishtirilgan [1].

Madaniylashtirilgan pomidorning botanik ta’rifi 1554 yil italiyalik botanik Matiolli tomonidan “*Commentarii*” asarida keltirilgan [2].

Uzoq vaqt mobaynida Yevropada pomidor iste’molga yaroqsiz deb hisoblangan va faqat manzarali ekin sifatida yetishtirilgan. Urug‘chilik kompaniyalari katalogida u sabzavotlar bo‘limida emas, balki manzarali ekinlar bo‘limida keltirilgan. Faqatgina XVIII-asr oxirida va XIX asr boshlarida u sabzavotlar qatoriga kiritilgan.

Fransiyaning Vilmoren urug‘chilik firmasida pomidor 1778 yildan sabzavot ekinlari qatoriga kiritilgan va 1793 yildan boshlab uning urug‘lari Parij bozorlarida sotila boshlagan. Angliyada 1819 yilda uni tomorqalarda yetishtirib yangiligicha iste’mol qilina boshlanganligi to‘g‘risida ma’lumotlar keltirilgan [3].

1812 yil yevropalik ko‘chmanchilar bilan birga birinchi marta pomidor Yangi Orlean shtatiga keltiriladi va 25 yildan so‘ng uni Shimoliy Amerika va Kanadada yetishtirila boshlanadi. Muallifning fikricha kartoshka singari pomidor ham Amerikadan Yevropaga dekorativ ekin sifatida olib kelingan va amerika qit’asiga madaniy o‘simlik sifatida olib kirilgan [4].

Rossiyada pomidor bundan 200 yil oldin olib kelingan va Qrimda va Kavkaz ortida yetishtirila boshlangan. Keyinchalik bolgarlar, greklar, moldaviyalik dehqonlar Qora dengiz bo‘yi mintaqasida yetishtirishgan [2].

Bu esa pomidor Rossiya Federatsiyasi xududiga Bolqon yarim oroli mamlakatlaridan kirib kelgan deyishga asos bo‘ladi. Keyinchalik XIX pomidor Donda, Povoljeda, Markaziy qoratuproq mintaqasida, Ukraina, Belorussiya, Litva kabi mamlakatlarda ham yetishtirila boshlangan [5].

Taniqli seleksioner olim Ye.V. Yermolova keltirgan ma’lumotlarga ko‘ra pomidor O‘zbekistonda birinchi marta 18 asrning oxirlarida Samarqand, Toshkent kabi yirik sanoat shaharlari atrofida bolgar dehqonlari tomonidan yetishtirila boshlangan. Hozirgi paytda u mamlakatimizda yetakchi sabzavot ekini hisoblanadi.

Respublikamizda ko‘p tarqalgan pomidorning **ertapishar**: Do‘stlik, Saxiy, Shafaq, Sevara, o‘rta-**ertapishar** Toshkent tongi, Bahodir, Sharq yulduzi, Sitora, Avitsenna, **kechpishar** Namuna navlari ko‘p tarqalgan. Turlari, navlari, yetishtirish uslubi va sharoitiga qarab, bu ekinning vegetatsiya davri 85 dan 140 kungacha davom

¹ FAOSTAT Statistics Database. FAO, Rome, Italy. <http://www.fao.org>.

etadi.

Yopiq maydonlarda sabzavot yetishtirish yilning kech kuz, qish va erta bahor oylarida aholini sabzavot mahsulotlari bilan ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. So'nggi yillarda sezilarli o'zgarishlar ro'y berdi – issiqxonalar turlari takomillashtirildi, qo'riqlanadigan yer uchun yangi navlar va duragaylar yaratildi, mahsulot tannarxini pasaytirish uchun parvarishlashning yangi usullari ishlab chiqildi. Issiqxonalar maydoni ko'paydi.

Shu o'rinda sabzavot ekinlari yetishtirilayotgan tuproq iqlim sharoitiga, o'simlikni ekish, oziqlantirish, vegetatsiya davrida parvarishlash agrotexnologiyalariga, ilg'orlar tajribasi va ilm-fan taraqqiyoti yutuqlariga amal qilgan holda munosabatda bo'lish muhim o'rin tutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Luckwill L. The Genus *Lycopersicon*. 1943. Aberdeen. The University Press. 222 p.
2. Алпатев А.В. Помидоры. М., “Московский рабочий”, - 1981. – 302 с.
3. Маскевич В.И. 1926. Томаты. Л. -189 с.
4. Lehmann C.O. Die Tomate. 1953. Berlin. – 322 р.
5. Бексеев, Ш.Г. Раннее овощеводство: селекция, возделывание, семеноводство / Ш.Г. Бексеев // – СПб.: «ПрофИКС», 2006. – 408 с.